

Aralboyı aymağındagı qaramallar shistosomozınıń máwsimlik dinamikasını analizlew tiykarında qaramallardıń shistosomozlar menen juǵıwı jaz aylarında iyun ayınıń ekinshi yarımınan baslanıp avgusttıń aqırına shekem boladı dep juwmaq shıǵarıwǵa boladı. Bul dáwir aralıq xojayın wazıypasın atqarıwshı *Lymnaea auricularia* (= *Radix*) túrine kiriwshi mollyuskalardıń *Sh. turkestanicum* partenitleri hám serkariyaları menen maksimal dárejede invazıyalanǵan waqtına tuwrı keledi.

Lymnaea auricularia mollyuskaları Ózbekstanınıń arqabatis regionı sharayatında - shistosomoz boyınsha qolaysız aymaqta turaqlı populyacıyalardı payda etedi. Olar júdá kóp muǵdardagı serkariyalardı bólip shıǵarıp, suw basseyneriniń jaǵalaw bólimlerinde invazion elementlerdiń joqarı koncentracıyasın támiyinleydi, bul bolsa definitiv xojayınlardıń shistosomalar menen intensiv zıyanlanıwına sebepti boladı. Bunnan tisqari, zıyanlanǵan mollyuskalar

bir suw basseyninen ekinshisine kirip barıp, tarqatıwshı wazıypasın da atqaradı.

Juwmaq. Izertlew nátiyjeleri hám ádebiyat maǵlıwmatlarınıń analizi Ózbekstanınıń arqabatis aymaǵı sharayatında sharwa mallar epizootıyasınıń cıklılıǵın óz ishine alatúǵın shistosomoz keselligi kórinisiniń ózgesheliklerin táriyiplewge imkaniyat beredi.

Shistosomozǵa qarsı gúresiw strategiyası tómendegilerge qaratılıwı kerek: mollyuskalar populyacıyasınıń sanın azaytıw arqalı invaziyanıń tarqalıwın azaytıw; nátiyjeli preparatlardı qollanıw arqalı invaziya deregi bolǵan haywanlardı degelmintizacıyalaw; xojalıqlarda hám qorshaǵan ortalıqta veterinariya-sanitariyalıq normalardı anıq orınlaw.

Biz usınıp otırǵan ilajlar kompleksi haywanlarda shistosomoz keselliginiń abadanlıǵın támiyinleydi, sharwashılıq tarmaqların rawajlandırıwǵa hám ónimdarlılıqtıń barlıq túrlerin arttırıwǵa xızmet etedi.

Ádebiyatlar

1. Азимов Д.А., Акрамова Ф.Д., Шакарбоев Э.Б., Норкобилов Б.Т., Шакарбаев У.Л., Сайиткулов Б.С. Шистосомоз животных. – Ташкент: «Фан», 2019.

2. Норкобилов Б.Т., Шакарбаев У.А., Акрамова Ф.Д., Азимов Д.А., Торемуратов М. Морфо-биологические особенности партеногенетических и раздельнополого поколений *Schistosoma turkestanicum* Skrjabin, 1913. // Российский паразитологический журнал. 2020. Т. 14. № 2. – С. 11-28.

3. Majoros G., Dan A., Erdelyi K. A natural focus of the blood fluke *Orientobilharzia turkestanica* (Skrjabin, 1913) (Trematoda: *Schistosomatidae*) in red deer (*Cervus elaphus*) in Hungary. // Vet. Parasitol. 2010. Vol. 170. – P. 218-223.

4. Sahba Gholam H. A., Malek Emile A. Dermatitis caused by Cercariae of *Orientobilharzia turkestanica* in the Caspian Sea area of Iran. // Amer. J. Trop. Med. and Hyg., 1979. №28(5). – P. 912-912.

5. Халиков С.С., Акрамова Ф.Д., Уббиниязова Ж.К., Халиков М.С., Шакарбаев У.А., Ильин М.М., Акбаров А.А., Азимов Д.А. Разработка препаратов для лечения шистосомоза овец в Республике Узбекистан и их эффективность. // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – Москва: Академия естествознания, 2023. №8. – С. 42-46.

REZYUME. Maqolada uy sutemizuvchilarning parazitologik tadqiqotlari va ularning *Schistosoma turkestanicum* Sbrjabin trematodasi bilan zararlanishi, 1913-yil O'zbekistonning shimoli-g'arbiy mintaqasi sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Tekshirilayotgan hayvonlar orasida yuqtirish darajasi quyidagicha: qoramollarda 88,0%, qo'ylarda 54,2%, echkilarda 28,8%. INFEKTSION darajasi o'nlab hayvonlardan bir necha minggaacha keng tarqalgan.

РЕЗЮМЕ. В статье представлены результаты паразитологических исследований домашних млекопитающих и их заражение трематодой *Schistosoma turkestanicum* Sbrjabin, 1913 в условиях северо-западного региона Узбекистана. Поражение у обследованных животных составило: у крупного рогатого скота - 88,0%, у овец - 54,2%, у коз - 28,8%. Интенсивность заражения животных колебалась в широком диапазоне от десяти до нескольких тысяч экземпляров.

SUMMARY. The article presents the results of parasitological studies of domestic and wild mammals and their infection with the *Schistosoma turkestanicum* Sbrjabin, 1913 trematode in the conditions of the northwestern region of Uzbekistan. Infection in the examined animals was cattle - 88.0%, sheep - 54.2%, goats - 28.8%. The intensity of animal infection ranged from ten to several thousand specimens.

Geografiya

QASHQADARYO VILOYATI SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHINING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI

M.A.Fayzullayev – geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent

G.A.Abdiholiqova – tayanch doktorant

Qarshi davlat universiteti

Tayanch so'zlar: Qashqadaryo viloyati, sanoat tarmoqlari, hududiy rivojlanish, qayta ishlash sanoati, tog'-kon sanoati, energetika, texnologik tarkib, mahalliyashtirish, investitsiya, innovatsiya.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, промышленные отрасли, территориальное развитие, перерабатывающая промышленность, горнодобывающая промышленность, энергетика, технологическая структура, локализация, инвестиции, инновации.

Key words: Kashkadarya region, industrial sectors, territorial development, manufacturing industry, mining industry, energy, technological structure, localization, investment, innovation.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan davrda sanoat sohasi har bir davlat iqtisodiyotining asosiy tayanch poydevori hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy tizimda sanoat ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishi va diversifikatsiya jarayonlari nafaqat milliy iqtisodiyot, balki global bozor barqarorligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi [7, 11]. So'nggi yillarda dunyo mamlakatlarida qayta ishlash sanoatini modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali mahsulotlar

ishlab chiqarish, yashil energetika va resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarb mavzulardan biri sifatida maydonga chiqmoqda [4, 5, 9]. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarini hududiy jihatdan muvozanatli rivojlantirish xalqaro iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti sifatida qaralmoqda [6, 10].

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan buyon sanoatni milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirib kelmoqda. Respublikada neft-gaz, tog'-kon,

kimyo, qurilish materiallari, energetika va yengil sanoat tarmoqlari bo'yicha yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritib, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlab bermoqda. So'nggi yillarda "sanoat zonalarini" va "kichik sanoat hududlari"ni tashkil etish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturlari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [8, 12]. Bu esa sanoat tarmoqlarining hududiy rivojlanishini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va eksport salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning yirik iqtisodiy hududlaridan biri bo'lgan Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlarining rivojlanishi nuqtayi nazaridan katta salohiyatga ega. Viloyat hududida neft, gaz, oltin, ko'mir, kaliy kabi tabiiy resurslarning mavjudligi, shuningdek, qishloq xo'jaligi xomashyosining ko'pligi sanoatning turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. So'nggi yillarda viloyatda qayta ishlash, tog'-kon, energetika va boshqa tarmoqlarda sezilarli o'sish kuzatilib, Nishon, Qarshi va G'uzor tumanlari sanoatning asosiy tayanch hududlari sifatida ajralib chiqdi [1, 3]. Shu bilan birga, ayrim tumanlarda sanoat salohiyati yetarli darajada rivojlanmagan bo'lib, hududiy tafovutlarni bartaraf etish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va investitsion muhitni yaxshilash Qashqadaryo sanoatining dolzarb vazifalari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Asosiy qism. Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmlari hududlar kesimida turlicha rivojlanish sur'atlariga ega bo'lib, bu holat viloyatning iqtisodiy geografik xususiyatlarini yaqqol ifodalaydi. 2024-yil yakunlari bo'yicha shahar va tumanlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari miqdori hamda ulushlarini tahlil qilish hududlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash, sanoatning yuqori, o'rtacha va past darajada rivojlangan hududlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bunday hududiy tahlil sanoatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va hududiy tengsizliklarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taktiklarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi guruh – sanoati yuqori rivojlangan hududlar. Ushbu guruhga Nishon tumani (23,9 %), Qarshi shahri (12,7 %) hamda G'uzor tumani (11,4 %) kiradi (1-jadval). Mazkur hududlar viloyat sanoat ishlab chiqarishida yetakchi o'rin egallab, umumiy hajmning qariyb yarmini ta'minlamoqda. Ayniqsa, Nishon tumani 9,4 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarib, yakkayu yagona holda viloyatning qariyb chorak qismini shakllantirdi. Bu yerda yirik sanoat korxonalari, xususan, elektr energiya ishlab chiqarish, gaz qazib olish va qayta ishlash korxonalari faoliyati asosiy drayver bo'lib xizmat qilmoqda. Qarshi shahri hamda G'uzor tumani esa sanoatning transport-logistika imkoniyatlari, shuningdek, gazni qayta ishlash, xizmat ko'rsatish va qayta ishlash tarmoqlari orqali o'z mavqeini mustahkamlagan. Bu hududlar sanoatning yetakchi markazlari sifatida butun viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ikkinchi guruh – sanoati o'rtacha rivojlangan hududlar. Ushbu guruhga Qarshi tumani (6,7 %), Kasbi (5,9 %), Kitob (4,3 %) va Koson (4,1 %) tumanlari kiradi (1-jadvalga qarang). Bu hududlarda ishlab chiqarish hajmi nisbatan barqaror va viloyat iqtisodiyotiga muhim hissa qo'shmoqda. Masalan, Qarshi tumani 2,6 trillion so'mlik, Kasbi tumani esa 2,3 trillion so'mlik sanoat mahsulotini ishlab chiqargan bo'lib, ular viloyatdagi sanoatning

o'rtacha salohiyatga ega o'choqlari sifatida qaraladi. Kitob va Koson tumanlarida esa ishlab chiqarish hajmlari 1,6-1,7 trillion so'm atrofida shakllangan bo'lib, asosan qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlariga tayangan [2]. Ushbu guruh hududlari sanoatning keyingi bosqichda modernizatsiya qilinishi va yangi texnologiyalar joriy etilishi bilan yuqori rivojlangan hududlar safiga qo'shilish salohiyatiga ega.

1-jadval. Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari (2024-yil)

Hudud	Hajm (mlrd so'm)	Ulushi (%)
Qarshi sh.	5010.9	12.7
Shahrisabz sh.	753.3	1.9
G'uzor	4501.6	11.4
Dehqonobod	1051.4	2.7
Qamashi	851.9	2.2
Qarshi	2655.2	6.7
Koson	1627.4	4.1
Kitob	1704.8	4.3
Mirishkor	946.1	2.4
Muborak	1203.3	3.0
Nishon	9441.8	23.9
Kasbi	2346.4	5.9
Ko'kdala	292.3	0.7
Chiroqchi	918.6	2.3
Shahrisabz	1051.9	2.7
Yakkabog'	1114.1	2.8
Qashqadaryo viloyati	39488,1	100

Jadval Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Uchinchi guruh – sanoati past rivojlangan hududlar. Bu toifaga Shahrisabz shahri (1,9 %), Shahrisabz tumani (2,7 %), Yakkabog' (2,8 %), Dehqonobod (2,7 %), Qamashi (2,2 %), Mirishkor (2,4 %), Muborak (3,0 %), Chiroqchi (2,3 %) va Ko'kdala (0,7 %) kiradi (1-jadvalga qarang). Mazkur hududlar viloyat sanoat ishlab chiqarishida nisbatan kichik ulushga ega bo'lib, ularning umumiy hajmi 1 trillion so'mdan 1,2 trillion so'mgacha chegaralanib qolgan. Ayniqsa, Ko'kdala tumani 292,3 milliard so'm ishlab chiqarish bilan eng past ko'rsatkichga ega bo'ldi. Ushbu hududlarda ishlab chiqarishning asosan kichik korxonalar faoliyati va qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash bilan chegaralanganligi ko'rinadi. Ularning sanoat salohiyatini oshirish uchun investitsiya muhitini yaxshilash, yangi korxonalar tashkil etish va transport-logistika infratuzilmasini kengaytirish zarur.


Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni hududlar kesimida sezilarli tafovutlarni namoyon qilmoqda. 2025-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan korxonalar soni hamda 2024-yil davomida tashkil etilgan yangi korxonalar ko'rsatkichlari hududlarning sanoat salohiyati va rivojlanish sur'atlarini tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu jarayon viloyat sanoatining hududiy rivojlanish tendensiyalarini, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini hamda investitsion muhitning faoliyat darajasini ilmiy asosda baholash imkonini beradi.

Qashqadaryo viloyatida 2025-yil 1-yanvar holatida Qarshi shahri (521 ta), Kitob tumani (352 ta), Yakkabog'

tumani (242 ta) va Shahrisabz shahri (232 ta) eng ko'p sanoat korxonalariga ega bo'lgan hududlar sifatida ajralib turadi. Aksincha, Dehqonobod (61 ta), Mirishkor (68 ta), Muborak (70 ta) va Ko'kdala (85 ta) tumanlarida korxonalar soni eng kam bo'lib (1-rasm), bu hududlarda sanoat infratuzilmasining yetarlicha shakllanmaganligini ko'rsatmoqda. Demak, viloyatda sanoat korxonalarining hududiy taqsimoti notekis bo'lib, ayrim shahar va tumanlarda ularning jamlanishi yuqori darajada namoyon bo'lgan.


1-rasm

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2025- yil 1- yanvar holatiga)



2-rasm

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2024- yil yanvar-dekabr)



Rasm Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Adabiyotlar

1. Abdiholiqova G.A. Qashqadaryo viloyati sanoati rivojlanishining iqtisodiy geografik jihatlarini. // Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari 14-to'plam 1-son, dekabr 2024. 257-265-b.
2. Abdiholiqova G.A. Qashqadaryo viloyatida kichik sanoat zonalarini tashkil etishning hududiy jihatlarini. // Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. №5(132) 2025, – С. 7-13.
3. Abdiholiqova G.A. Qashqadaryo viloyatida kichik sanoat zonalarini hududiy joylashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. // Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. 19-to'plam 1-son, may 2025. 290-295-b.
4. Weber A. Theory of the Location of Industries. – Chicago: University of Chicago Press, 1929.
5. Krugman P. Geography and Trade. MIT Press, 1991.
6. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, 1990.
7. Storper M., Anthony J. Venables. Buzz: Face-to-Face Contact and the Urban Economy. // Journal of Economic Geography, vol. 4, №. 4, 2004, – P. 351-370.

8. Mirzajonov Sh.R. O'zbekiston sanoati hududiy tashkiloti va rivojlanish strategiyasi. // Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar Jurnal, 2022.
9. Henderson J. Vernon., Jacques-François Thisse. Handbook of Regional and Urban Economics. // Elsevier, 2004.
10. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). Industrial Development Report 2023: Global Value Chains and Development.

11. World Bank. The Economic Geography of Regional Integration. Washington, DC: World Bank, 2021.

12. Солиев А. Иктисодий география: назария, методика ва амалиёт. – Тошкент: «Камалак», 2013.

REZYUME. Maqolada Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlarining hududiy rivojlanish xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Viloyat hududida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining soni, ishlab chiqarish hajmlari va tarmoq tarkibi statistik ko'rsatkichlar asosida yoritilgan. Tadqiqot jarayonida sanoatning qayta ishlash, tog'-kon, energetika va boshqa tarmoqlaridagi rivojlanish sur'atlari hamda hududiy tafovutlar o'rganilgan. Shuningdek, sanoat ishlab chiqarishining texnologik tarkibi, yuqori va quyi texnologiyali mahsulotlar ulushi, mahalliyashtirish jarayonlari va xorijiy investitsiyalarning ta'siri alohida tahlil qilingan. Natijalar viloyat sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlashda hududiy resurslardan samarali foydalanish, investitsion muhitni yaxshilash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

РЕЗЮМЕ. В статье научно проанализированы территориальные особенности развития промышленных отраслей Кашкадарьинской области. На основе статистических показателей освещены количество действующих промышленных предприятий, объемы производства и отраслевая структура региона. В ходе исследования изучены темпы развития перерабатывающей, горнодобывающей, энергетической и других отраслей промышленности, а также территориальные различия. Кроме того, отдельно рассмотрены технологическая структура промышленного производства, доля высоко- и низкотехнологичной продукции, процессы локализации и влияние иностранных инвестиций. Полученные результаты показывают необходимость эффективного использования региональных ресурсов, улучшения инвестиционного климата и внедрения инновационных технологий для обеспечения устойчивого развития промышленности области.

SUMMARY. This article provides a scientific analysis of the territorial features of industrial sector development in the Kashkadarya region. Based on statistical indicators, the number of operating industrial enterprises, production volumes, and sectoral structure are highlighted. The study examines the growth rates of manufacturing, mining, energy, and other industries, as well as regional disparities. In addition, the technological structure of industrial production, the share of high- and low-tech products, localization processes, and the impact of foreign investments are specifically analyzed. The results demonstrate the need for effective utilization of regional resources, improvement of the investment climate, and the introduction of innovative technologies to ensure the sustainable development of the region's industry.

UDK: 911.2(575.5):528.9

UZUN TUMANI LANDSHAFTLARINING TAVSIFI VA ULARNI KARTALASHTIRISH MASALALARI

R.O.Mingaliyev – tayanch doktorant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

Tayanch so'zlar: deduktiv, induktiv, landshaft yandashuvi, tarixiy-evolyutsion, genetik, struktural prinsip, tasniflash.

Ключевые слова: дедуктивный, индуктивный, ландшафтный подход, историко-эволюционный, генетический, структурный принцип, классификация.

Key words: deductive, inductive, landscape approach, historical-evolutionary, genetic, structural principle, classification.

Kirish. Landshaftlar tabiiy-geografik tizim sifatida murakkab tuzilishga ega bo'lib, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi va zamonaviy holatini chuqur o'rganish zamonaviy geoekologik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholi zichligining ortib borishi, xo'jalik faoliyatining kengayishi va ekologik muammolarning kuchayishi mavjud tabiiy komplekslarning izchil va ilmiy asosda o'rganilishini, ularni tasniflash zarurligini taqozo etadi. Tasniflash – landshaftshunoslikda landshaftlarni turli belgilariga ko'ra guruhlash va tizimlashtirish orqali ularni ilmiy jihatdan o'rganish va ulardan oqilona foydalanish imkonini beradigan metodologik asoslardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyotlar tahlilida Landshaft xillari chegaralarini aniqlash, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda landshaftlarni tasniflash muhim amaliy ahamiyatga ega. Yer yuzasi tabiati va tabiat hodisalari turli-tuman va murakkab bo'lganligi uchun landshaftlarni tasniflash borasida bir to'xtanga kelingan emas. Landshaftlarni tasniflash tajribalarini N.A.Gvozdeskiy, A.G.Isachenko, V.B.Sochava, A.I.Perelman, M.A.Glazovskaya, N.A.Kogay, F.N.Mil'kov,

V.A.Nikolaev va boshqa olimlarning tadqiqot ishlarida ko'rish mumkin. Ularning tasniflash birliklarining bir-biridan farq qilishi Yer yuzasi tabiatining xilma-xilligi, shuningdek, ushbu olimlar tadqiqot ishlarini turli tabiiy sharoitga ega hududlarda olib borganligi sabab bo'lgan, ularning tasniflash birliklari ham o'zlari o'rgangan hududga mos holda ishlab chiqilgan.

Landshaftlarni tasniflashning bir qancha metod va prinsiplari taklif qilingan bo'lib, ular orasida tarixiy-evolyutsion, genetik va struktural yondashuvlar keng qo'llaniladi.

Bu prinsiplarga asoslangan holda yaratilgan tasniflash sxemalari landshaftlarning xilma-xilligini izchil tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, V.A.Nikolaev tomonidan ishlab chiqilgan ko'p pog'onali tasnif sxemasi murakkab tabiiy tizimlarni o'rganishda keng qo'llanilib, landshaft birliklarining chuqur tahliliga imkon beradi

Landshaftlarni tasniflashda turli metodlar va prinsiplarga asoslangan yondashuvlar mavjud. Eng ko'p qo'llaniladiganlari orasida deduktiv va induktiv metodlar ajralib turadi.